



ЎЗБЕКСТАН RESPUBLIKASI  
JOQARI HÁM ORTA ARNAWLÍ BILIMLENDIRIW MINISTRILIGI

ÁJINIYAZ ATINDAGÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTI



«Tálimdi jetilistiriwde innovaciyahq usılda  
oqıtw hám tárbiyalaw» atamasındaǵı  
Respublikahq ilimiy-ámeliy konferenciya

## MATERIALLARÍ

25-26-NOYABR 2022-JIL

«Ta'limni takomillashtirishda  
innovatsion uslubda o'qitish va tarbiyalash»  
mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjuman

## MATERIALLARI

25-26 NOYABR 2022 YIL



NÓKIS - 2022

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI HÁM ORTA ARNAWLÍ  
BILIMLENDIRIW MINISTRILIGI

ÁJINIYAZ ATINDAĞI NÓKIS MÁMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTI

«Tálimdi jetilistiriwde innovaciyalıq usılda oqıtıw hám tárbiyalaw»  
atamasındağı

Respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya

**MATERIALLARI**

25-26-NOYABR 2022-JÍL

«Ta'limni takomillashtirishda  
innovatsion uslubda o'qitish va tarbiyalash» mavzusidagi

Respublika ilmiy- amaliy anjuman

**MATERIALLARI**

25-26 NOYABR 2022 YIL

NÓKIS- 2022

|     |   |     |
|-----|---|-----|
| 147 | <b>T.Bekmuratov., R.Jaqsimbaeva</b> Uliwma tálim beriw mekteplerinde dógerek jumslarin alip bariwda qaraqalpaqstan ámeliy ónerin metodikalıq úyreniw.....           | 293 |
| 148 | <b>A.Aldabergenov., M.Qaypanov</b> I-kurs talabalarına qálemde ámeliy jumslardi orınlaw basqıshları.....  | 295 |
| 149 | <b>A.Aldabergenov</b> Mektep oqıwshılarına keńisliktegi súwretlew jolların úyretiw.....   | 296 |
| 150 | <b>G.Yu.Smaylova P.J.Joldasov</b> Tasviriy san'at darslarıda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning afzallikları.....                                  | 298 |
| 151 | <b>M.E. Mirzaev</b> Chizma geometriya fanını o'qıtıshda multimediya texnologiyalaridan foydalanish.....   | 300 |
| 152 | <b>M.B.Sulaymonova, M.Sh.Murodova</b> O'zbek matolari, milliy liboslari tarixidan.....  | 304 |
| 153 | <b>Қ.Ж.Жумаев</b> Ўрта оснѐ сўзаналари.....   | 306 |
| 154 | <b>S.S.Arziyev</b> Muhandislik kompyuter grafikasi fanida gologrammalardan foydalanish.....   | 308 |
| 155 | <b>А.Мусинова Н.Хамраева</b> Роль бухарских евреев в развитии прикладного искусства средней азии 18-начало 20 вв.....   | 309 |
| 156 | <b>A.Aleuatdinov B.Kalmuratov</b> Talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.....  | 312 |
| 157 | <b>Umataliyev. M.A.</b> Tasviriy san'atdan malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda natyurmort kompozitsiyasining nazariyasi va amaliyoti.....                       | 313 |
| 158 | <b>А.Ализов Д.Маматов</b> Компьютер график дастурларидан фойдаланиб чизмачилик фанида талабаларнинг тафаккурини шакллантириш.....                                   | 315 |
| 159 | <b>N.Abdilloeva., D.Mamatov</b> Chizmachilik darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muammolari..... | 318 |
| 160 | <b>Г.А.Хакимова, З.Ш.Рахматова</b> Методика обучения рисованию по памяти и происхождение изобразительного искусства.....  | 320 |
| 161 | <b>Ш.Еримбетова</b> Различные резьбы по мрамору и резьбы по дереву.....   | 323 |

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, mavzuga oid ma'lumot va chizmalarni oddiy doskaga bo'ri bilan chizish ancha noqulay hisoblanadi, agar bu chizmalarni AvtoCAD dasturida multimediy texnologiyasini qo'llab dars mashg'ulotlarini o'tkazsak,

-birinchidan dars ko'rgazmali bo'ladi, chizmalarni chizish bosqichma-bosqich amalga oshirilib slaydlar animatsion xarakterda, video darslar ko'rinishini oladi;

-ikkinchidan chizma chiziqlarini bir-biridan farqlash uchun har xil ranglardan foydalanish mumkin bo'ladi;

-uchinchidan professor o'qituvchilar tomonidan guruh doskalariga chizmani chizish davomida yo'qotiladigan vaqtni tejash mumkin bo'ladi

-to'rtinchidan, talabalar tomonidan mavzu mazmunini to'laqonli tushinish muhandislik uchun eng muhim bo'lgan loyihalash, konstruktorlik kompetensiyalarini takomillashtiradi va fazoviy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Multimedia>
2. Jalilova Nigina Jalol qizi "Multimediy vositalari va ulardan foydalanish «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya
3. Ismatullaev R. Chizma geometriya. Toshkent, 2003, -111 b.
4. Xorimov R. Chizma geometriya kursi. -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 230 b.
5. Муродов Ш.К. ва бошқалар, Чизма геометрия, Олий ўқув юртлири учун дарслик, "Ихтисод-молча" нашриёти Тошкент-2008.
6. В.О. Гордон и другие "Курс начертательной геометрии" Учеб. пособие. Москва "Наука" 1988. 272с

#### O'ZBEK MATOLARI, MILLIY LIBOSLARI TARIXIDAN

*Sulaymonova M.B., Tarixiy va amaliy san'at kafedrasini o'qituvchisi  
Murodova M.Sh 12-LXABS-20 iqtidorli talabasi*

Qadimdan milliy kiyimlarni tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip gazlama, jun va ipak matolar kiradi. Ular qadimdan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz tomonidan yog'och dastgohda (do'kon) qo'lda to'qilgan. Ip gazlama va ipak matolarni, jundan to'qiladigan matolar uchun xom ashyo qadimgi Movarounnahr shahar va qishloqlarida ko'p bo'lgan. Ipakchilik bundan 2,5 ming yil avvaldan O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Avvallari Buyuk Ipak Yuli orqali Xitoydan ipak matolar va iplar olib kelingan, keyinchalik pakchilik bizning yurtda ham rivojlangach, pilla etishtirish yo'lga qo'yilgan. Pilledan tola olib undan ipak xon-atlas, shoyi, poshshoyi, yarim ipak matolar ( adras, banoras, beqasam, hisori, alocha va baxmallar) mahalliy to'qimachilar tomonidan ishlab chiqilgan. Jun va ipak to'qimachilik uchun qulay sharoit bo'lgan yurtimizda tayyorlangan. Matolar na fakat ichki bozorda, tashqi bozorda ham sevib xarid qilingan.

Qadimshunoslarning ta'kidlashicha g'o'za, paxta etishtirish Vatanimiz hududida 3,5 ming yil oldin mavjud bo'lgan. Surxandaryo viloyatining Sopolitepa xududidan qadimshunoslar tomonidan topilgan g'o'za urug'i (chigit) bundan 3,5 ming yil avvaldan saqlangan. Paxta tolasidan ip gazlama: bo'z, qarbos, qalami va chiti-chatti tayyorlash qadim-qadimdan ajdodlarimiz tomonidan rivojlantirilgan.

Yurtimizda to'qimachilikning asosan, ikki turid xammabop ip-gazlama to'qimachiligi (chitgarlik) va nisbatan qimmatroq ipak to'qimachiligi (shoyiboflik) ko'proq taraqqiy etgan. Ip-gazlama matolari tayyorlash-to'qish bilan, asosan, ayollar, ipak va nimshoyi gazlamalarni to'qish bilan esa, erkaklar shug'ullanishgan. Tabiiy xomashyolar ichida jun eng qadimgilaridan biri. Uni qadimgi chorvadorlar, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar ham

etishtirishgan. Tuya, qo'y, echki junlaridan ip yigirib jun, gazlama, gilam, namat to'qishgan va uy-ro'zg'orda kiyim –kechak tayyorlashda ishlatishgan.

Ip gazlama tayyorlash ham asosan ayollar zimmasida bo'lgan. Ip gazlama matolarning turlari va navlari xilma-xil bo'lgan. Ayniqsa, oq, jigarrang, sariq va malla tusli bo'zlar keng tarqalgan bo'lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun choponlar ichki va uski kiyimlar sallalar tikilgan. Ayollarning ro'mollari dokana va lachaklarini tikish uchun shasha doka ishlatilgan. Erkaklarning kuytlaklari va ishtonlari malla va oq bo'z, malla surp, sidirg'a chit, sodda to'qilgan qalami deb nomlangan yo'l-yo'l ip gazlamalardan tikilgan.

O'tmishda o'lkamizdagi butun-butun shaharlar faqat ma'lum bir nav va ranglardagi gazlamani to'qishga ixtisoslashgan edi. Badiiy to'quvchilikning maktablari ham mavjud edi. Bularning bari matolarini bo'yash san'atining yuksak yangi mahalliy gazlama to'qish uslublari, ular qo'lidan chiqadigan matolar rangi-bo'yog'i gullarining bir-biriga o'xshashligi nafisligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi ip gazlamalar Buxoro shahrida ham to'qilgan. Shahardagi mashhur to'qimachilik ustaxonasi to'g'risida Buxoroning X asr tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Jachfar Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" kitobida yozib qoldirgan. Asarning "Buxoroda bo'lgan "Bayt ut tiroz" – "To'qimachilik korxonasi" ning bayoni u hamuz o'z joyida turibdi" deb nomlangan bobida shunday deydi. "Buxoroda Hisor bilan Shaxriston o'rtasida masjidi jome yaqinida bir korxonasi bor edi. Unda paloslar, darpardalar yuzdagi kiyimliklar yostiq jildlari fundaqiy joynamozlar va ust kiyimlari xalifa uchun to'qir edilar. Bitta darpardaga butun Buxoro xiroji sarf bo'lardi. Bog'doddan har yili bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga ish kiyimliklaridan olib ketar edi. Demak Buxoroda to'qilgan mato shunday yuksak qiymatga ega bo'lgan.

Narshaxiy Zandana shahriga to'xtalar ekan shunday deb yozadi; Bu qishloq katta qal'aga ko'pgina bozor joylarga va masjidi jomega ega. Bu erda har juma kuni namoz o'qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda to'qib chiqariladigan narsa – bo'zni "Zandaniychi" ya'ni "Zandana qishlog'idan chiqadigan" deb ataydilar. Bu erda ham yaxshi ham ko'p bo'ladi. Shu xil bo'zdan Buxoroning ko'p qishloqlarida to'qiydilar va buni ham "Zandaniychi" deb ataydilar. Chunki u avvalo shu qishloqda to'qib chiqarilgan. Shu xil bo'zdan Iroq, Fors, Kermun Hindiston va boshqalar kabi hamma viloyatlarga olib boradilar. Barcha ulug'lar va podshohlar undan kiyim qiladilar va ipakli kiyimlik bahosida sotib oladilar.

Bundan ming yildan ko'proq vaqt oldin to'qilgan matoga berilgan bahoga qaraganda, to'quvchilar san'at darajasidagi mato turini yaratganliklariga guvoh bo'lamiz.

Zandaniychi matosining VIII asrga ta'luqli asl nusxasi hozirda Belgiyaning Yun ibodatxonasida saqlanadi va butun dunyoga mashhurdir.

Qadimgi to'qimachilik namunalari bizga etib kelmagan. Matoh va kiyimlar kundalik turmushda ko'p ishlatilganligi bois ular yo'q bo'lib ketgan.

Uning qadimgi namunalari to'g'risida arab tarixchilari Ibn Haqqul va al-maqaddisi, Ispan elchisi Ruyu Gonsales de Klavixo, vengriyalik sayyox Herman Vamberlar o'z asarlarida yozma ma'lumotlar qoldirganlar.

Qadimgi davr O'rta Osiyo me'morchilik yodgorliklari Afrosiyob, panjikent, tuproq qal'a Panjikent Varaxsha va Poykent saroylari devoriy suratlarida tasvirlangan kiyimlar, ot, fil yopinchilqlariga qarab bu qadimgi humar yurtimizda uzoq asrlardan beri rivojlanib kelganligini bilamiz.

O'rta asrlar to'qimachiligi to'g'risida XIX-XVII asrlar qadimgi qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralardan xulosa chiqarsak bo'ladi.

Yurtimizda XIX asr matohlaridan tayyorlangan liboslar dunyo muzeylarida saqlangan. Ulardan bu humar naqadar go'zal va nafis ko'rinishiga ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Аyniqsa ipakdan to'qilgan xon-atlas, shoyi, atlas, baxmal, alocha, beqasam, Hisoni singari matohlar o'zining betakror naqshi – nigori ranglari va bejirimligi bilan alohida ajralib turadi.

Abrbofchilar tomonidan yaratilgan, o'simliksimon, xandasaviy, kosmogonik naqshlar jozibas barcha xalqlar vakillarini lol qoldiradi.

Milliy to'qimachilikning yangidan-yangi xillari mustaqilligimiz tufayli qayta tiklanib milliy liboslar ko'rinishida dunyo xalqlari tomonidan sevib xarid qilinishi, bu humarning umrboqiy ekanligidan darak beradi. Milliy matolarimizda hayot va olam go'zalligi mujassamlashgan, u insonlar qalbini shodlikka to'ldiradi.

Undan tikilgan libosni kiygan Buxoroliklarni bejizga "Sharq pariylklari" deb atashmaganlar.

#### Adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy "Buxoro tarixi" T.1966
2. Mahkamova S. "Uzbekistan abrov'ys tkani" Toshkent.1963yil
3. O.A.Suxarova "Kvartalnaya obshina pozdnefeodalnogo goroda Buxary M.1967
4. D.A.Faxretdinova Dekorativno prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. T.1972
5. A.A.Hakimov Sovremennoe dekorativnoye iskusstvo Respublik Sredney Azii. T.1988
6. A.A.Hakimov O'zbekiston san'ati (1991-2001) T,2001
7. O'zbekiston xalq amaliy san'ati. T.1979
8. Buxoro davlat badiiy –me'moriy muzey qo'riqxonasi (Kitob albom. T.2004
9. J.Jumaev Sitorai Moxi Xossa risola Buxoro 2010

#### ЎРТА ОСИЁ СЎЗНАЛАРИ

*Жумаев Қорғоди Жураевич*  
*Бухоро давлат университети*

Ипакчилик келим давлардан тараклий этган Ўрта Осиёда каштачилик халк ижодининг энг оммавий демократик шаклларида бири бўлиб келган. Қалимдан ипак-каштачилик билан хотин-кизлар шуғулланишган. Ўрта Осиёнинг ўзбек ва тоjik халқи турмушида чиройли тикилган сўзани, чойшаблар, болингўш, жойгўш ва бошқалар жуда кенг тарқалган. Талкичотчилар Ўрта Осиё келими вақтларда ҳам ўзининг гул солинган матолари билан машхур бўлган деб кайд қиладилар. Булар хақида Зардўштиларнинг муқаддас китоби Авестода (Хоразм, эрамиздан аввалги VII аср) Искандар Зулкарнайн (Юнонистон- Македониялик Александр Македонский, эрамиздан аввалги IV аср) юришларини баён этувчи тарихчиларнинг китобларида, римлик тарихчилар асарларида, Хитой манбаларида, айниқса араб тарихчилари Истахрий, Ибн Хауқала ва Наршахийлар асарларида (X аср) мълумотлари бор. Бу манбаларда Ўрта Осиёнинг турли шахар ва деҳқончилик ривожланган келими кишлоқларида тўқилган, гул солинган турли хил декоратив матолар, бой безатилган кийимлар хақида ёзилган. Аммо бу манбаларда, хусусан, каштачилик хақида алоҳида тўхталинмайди. Шунинг учун ҳам археологлар келими қабрлардан Нонн – Уладаги (Шимолий Мўғилистон) гулликлар саркардасининг макбарасидан топилган чавандоз гавдаси, одам башараси ва ўсимликсимон орнаментли гул тикилган келими жун чодирлар катта эътиборга сазовордир. Талкичотчиларнинг фикрича, чодирлар бизнинг эрамизгача иккинчи асрларда тикилган бўлиб, хозирги Жанубий Ўзбекистон ва Тоjikiston йерларида яратилган (эрамиздан аввалги II – эрамизнинг II асрида хузфронтик қилган Кушонлар империяси).